

## AQLIY RIVOJLANISH MUAMMOSI BO'LGAN O'QUVCHILARNI SAVODGA O'RGATISHNING ILMIY ADABIYOTLARDA YORITILISHI

**Abdujabborova.M**

*JDPU. Maxsus pedagogika kafedrasи stajyor o'qituvchisi*

**Annatatsiya:** *Ushbu maqola jahon ta'limirning muhim vazifalaridan biri – funksional savodli o'quvchi shaxsini shakllantirish bo'lib aqliy rivojlanishda muammosi bo'lgan o'quvchilarni savodga o'rgatishning ilmiy adabiyotlarda yoritilishiga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar** *O'qish, nuqson, bibliopsixologiya, qo'zg'alish, tafakkuri, idroki, xotira, diqqati, nutqi, tasavvur, bilish, san'at.*

Jahon ta'limirning muhim vazifalaridan biri – funksional savodli o'quvchi shaxsini shakllantirish bo'lib, bu o'quvchi shaxsini jamiyatga madaniy qo'shilishining muhim shartidir. Funksional savodxonlikning tarkibiy qismi malakali o'qish bo'lib, u o'qish taktika va strategiyalarini ongli qo'llash asosida kognitiv-kommunikativ vazifalar majmuasini hal qilish imkonini beradi. Metapredmet ko'nikma va malakalarni shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo'luvchi o'qish asosida matnli axborotni to'liq qayta ishlamay turib, o'quvchi ijtimoiy-madaniy makonni o'zlashtira olmaydi. Shu munosabat bilan, bizningcha, ushbu vazifani hal qilishning muhim aspekti nafaqat nutqni tushunish va uni grafik ifodalashdan iborat bo'lgan nutqiy faoliyatning retseptiv ko'rinishi sifatida o'qishga o'rgatish, balki tushunish, o'qish maqsadini tahlil qilish va tegishli o'qish strategiyasini tanlash bilan bog'liq bo'lgan mazmuniy o'qishga o'rgatishdan ham iborat. A.Gertsen savodga o'rgatish ko'nikmasini o'zlashtirmay bilmay turib, inson baxtli bo'la olmaydi. O'qish san'atidan mahrum inson tarbiyasiz, ma'nан savodsizdir. O'qishsiz haqiqiy ta'lim ham yo'q, did ham, uslub ham, har tomonlama keng tushuncha ham yo'q va bo'lishi mumkin ham emas, deb ta'kidlagan edi[67].

Jahonda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari o'quvchilarida savodga o'rgatish ko'nikmasini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirishga oid olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan qator ilmiy natijalar olingan. Jumladan, aqli zaif o'quvchilarga fonema tushunchasini tabiiy ravishda o'qitish bo'yicha ishonchli natijalar olingan hamda ta'lim jarayonida aqli zaif o'quvchilarida savodga o'rgatish ko'nikmasini shakllantirishdagi qiyinchiliklarni kamaytirish, abilitasiya (erta aralashuv) modellari tatbiq etilgan (University of California at Riverside), o'qish qobiliyati eng muhim ustuvor yo'nalish ekanligi, boshqa sohalarni o'rganish va yutuqlarga erishish uchun muhim bo'lgan mahorat.

sifatida qabul qilinishi asosida aqli zaif o'quvchilarning o'ziga xos imkoniyatlarini hisobga olib, korreksion ta'lism jarayonida ularning o'qish qobiliyatini rivojlantirish texnologiyalari hamda baholash tizimi optimallashtirilgan (University of Minnesota, National Center on Educational Outcomes), aqli zaif o'quvchilarda savodga o'rgatish ko'nikmasini shakllantirish nafaqat talaffuz masalasi, balki intellektual muammo ekanligi, o'quvchilarning aqliy taraqqiyoti va tushunchalarini rivojlantirish texnologiyasi individual ta'lim traektoriyasi asosida ishlab chiqilgan (The International Reading Association on behalf of Unesco: The teaching of reading), alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga o'rgatishda CORI (Concept Oriented Reading Instruction) instruksiysi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu instruksiya asosida o'quvchilarning ichki motivasiyasiga ta'sir qilgan holda o'qishga o'rgatish texnologiyalari amaliyotga joriy etilgan ([Griffith University](#), University of Wollongong Australia),

Savodga o'rgatish jarayonlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha N.A.Rubakinning bibliopsixologiya konsepsiyasida keltirilishicha, o'qish jarayoni nutqiy faoliyatning ta'sirchan turi sifatida sensomotor va semantik darajalarning o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadi, kitobxon va kitob o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mohiyatining ilmiy asoslari yoritiladi. To'laqonli savodga o'rgatish ko'nikmasini egallash – bu qolgan hamma maktab o'quv predmetlari bo'yicha ta'lim berishning poydevori, axborot olish va eng muhimmi, o'zaro muloqotning asosiy manbai[169].

Savod o'rgatish – bu o'qish va yozishga o'rgatish demakdir. Savod o'rgatish ishlari orqali o'quvchilar ta'lism – tarbiya jarayonida o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikma – malakalar hosil qilinadi.

Savod o'rgatish ishlari o'quvchilarni individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilsa, o'quvchilarni ona tili va boshqa o'quv predmetlarini o'zlashtirishlari uchun muayyan darajada imkoniyatlar yaratiladi.

O'quvchilarda o'qish va yozish ko'nikmalarini hosil qilish uchun o'qituvchidan ilmiy jihatdan asoslangan va tajribalardan o'tgan usullardan mahorat bilan foydalanish talab etiladi.

Qisqa muddat ichida o'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatish uchun o'zbek tilidagi tovushlarga va ularni yozuvda ifoda etish sistemasiga muvofiq keladigan, ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining psixik xususiyatlarini, shuningdek maktabga endigina kelgan bolalarning o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga oluvchi, maxsus muassasaning ta'lim va tarbiya vazifalariga to'liq javob bera oladigan usullar bo'lishi kerak. Bunday usul tarkibiy tahlil usulidir.

Hozirgi zamон таркibi – тahlil асосидаги tovush usuli o‘quvchilarni har tomonlama kamol toptirib boorish, tushuncha va dunyoqarashni tarkib toptirish, ma’naviy – axloqiy fazilatlarini tarbiyalab borishni taqazo etadi. Buning uchun savod o‘rgatish ishlarini pedagogic – psixologik fanlar tamoyillari, metod va usullari асосида amalga oshirish talab etiladi.

Bolalarни savodga o‘rgatish uchun ularning psixologik xususiyatlari, qiziqishi, imkoniyati, qobiliyati va boshqa ruhiy holatlarini hisobga olish pedagogic faoliyatni samarali amalga oshirish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Savodga o‘rgatish jarayoni g‘oyat murakkab psixik-fiziologik jarayondir. O‘qish jarayonining amalga oshuvida ko‘rish, nutq-harakat, nutq-eshitish analizatorlari qatnashadi. B.G.Ananев bu jarayon асосида “analizatorlarning va ikki signal tizimi muvaqqat aloqalarining nihoyatda murakkab o‘zaro ta’sirlanish mexanizmlari yotadi”, deb ta’kidlaydi[72]. Obraz, belgilangan so‘z ma’nosи va uni qabul qilish о‘rtasidagi chambarchas aloqa qabul qilishning boshqa turlaridan ajralib turuvchi nutqni (og‘zaki yoki yozma) qabul qilish jarayonida yuzaga chiqadi, zero nutqni qabul qilish jarayoni bir tomondan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri hissiy bilish jarayoni bo‘la turib, u o‘z ob‘ekti – nutqiy xabarning o‘ziga xos xususiyati tufayli borliqni bilvosita ikkinchi signal bilan aks ettirish jarayoni, ya’ni so‘zlar vositasida ifodalanuvchi hamda tushunishni o‘z ichiga oluvchi aloqa va munosabatlarni ochib berish jarayonidir. A.N.Leontevning fikricha, sensorli tasvirning predmetli ma’nosini anglashning o‘zi "idrok qilish shaxsning lisoniy ma’nolar tizimiga bog‘liq"ligidan dalolat beradi[136]. S.L.Rubinshteyn hissiy va semantik idrokning yaxlitligi, ularning o‘zaro bog‘liqligi haqida gapiradi. Muallif ular yonma-yon joylashganligini ta’kidlaydi; zero ob‘ektiv ma’noni anglash hissiy mazmunga asoslanadi, undan kelib chiqadi va mazkur hissiy mazmunning predmetli ma’nosini anglashdan boshqa narsa emas, deb ta’kidlaydi[170].

L.S.Vigotskiy o‘qish hodisasini quyidagicha tavsiflaydi: "Savodga o‘rgatish ko‘nikmasini shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, unda fikrlash nuqtai nazaridan yuqori aqliy funksiyalar bevosa ishtirok etadi va rivojlangan o‘qish yoki rivojlanmagan o‘qish albatta o‘quvchining rivojlanishida bevosa sabab bo‘lib xizmat qiladi ..."[86].

L.M.Shvarsning nazariyasiga binoan o‘qish qobiliyatini rivojlantirish jarayonida uning psixologik tuzilishida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi. Ushbu siljishlar bosma so‘zning tovushli so‘zning o‘rnini bosuvchi roldan tobora uzoqlashayotganligi bilan ifodalanadi. Bosmada yozilgan so‘zning o‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’no bilan bog‘lana boshlaydi. O‘qish jarayonining haqiqiy murakkabligi faqat o‘qilgan matnlarni anglash bilan bog‘liq holda ochiladi. Olim rivojlangan

savodga o'rgatish ko'nikmasining psixologiyasini o'qish paytida matnni idrok etish orqali ko'radi. Matnni tushunish jarayonini hisobga olgan holda, muallif uning turli xil "birliklari" haqida gapiradi. Shu bilan birga, u so'zlarni tushunish, taxmin qilish, jumlalarni tushunish, alohida paragraflar, xatboshilar, boblar va umuman ishni tushunishga e'tibor beradi[196].

O'quvchilarda savodga o'rgatishda o'qish qobiliyatini o'zlashtirilishini o'rgangan R.I.Lalaeva o'qish jarayonini matnli yozishmalar qoidalariiga ko'ra belgilanadigan nutq faoliyati deb ko'rsatadi. Savodga o'rgatish jarayonini murakkab hodisa deb hisoblab, ushbu qoidalarga rioya qilingan taqdirda, o'qish jarayoni amalga oshirildi deb hisoblanishi, ya'ni unda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, aql, iroda, his-tuyg'ular, motorika kabi aqliy jarayonlarni ishtirot etishini ajratadi[128].

T.G.Yegorov ilmiy ishida savodga o'rgatish ko'nikmasini o'zaro bog'langan uchta amaldan iborat faoliyat sifatida olib qaraydi: harfiy belgilarni idrok etish, ular vositasida belgilangan matnni ovozlashtirish (ovozi chiqarib talaffuz qilish), o'qilgan matnni anglash; savodga o'rgatish ko'nikmasini o'zlashtirayotgan kichik maktab yoshidagi o'quvchida bu amallar ketma-ket sodir bo'ladi. Biroq matnni o'qish tajribasi to'planib borilgan sayin, bu komponentlar sintezlashadi. "Matnni anglash va o'qishda ko'nikma jarayonlari o'rtasidagi sintez qanchalik moslashuvchan bo'lsa, savodga o'rgatish ko'nikmasini o'zlashtirish jarayoni shunchalik mukammal kechadi, aniq va ifodali bo'ladi". Bundan shu narsa ayon bo'ladiki, tadqiqotchi o'qish texnikasi ("savodga o'rgatish ko'nikmasi" deb ataladigan tushunchani, ya'ni idrok etish va ovozlashtirish mexanizmini) o'qilgan matn mazmunini anglash jarayoni bilan birga amalga oshishini ta'kidlaydi[101]. Har qanday o'qish ta'limi ongli o'qish ta'limi bo'lishi talab etiladi. Ongli o'qish bo'lishi uchun uchchala amal ham bir paytning o'zida amalga oshishi zarur. Ongli savodga o'rgatish ko'nikmasini mustaqil o'zlashtirgan hamda o'qishning ta'limiy- bilish motivlari rivojlangan o'quvchidagina o'qishga qiziqish yuzaga keladi. Shuningdek o'qish usullarini, matn mazmuni ustida ishslash usullarini bilish, o'z-o'zidan, spontan rivojlanmasligi kerak bo'lgan muayyan malaka va ko'nikmalarni egallahlik ham o'qish faoliyatini o'zlashtirishning muhim shartlaridandir. Boshlang'ich sinfda o'qish sifatini oshirishning variantlaridan biri bu o'qishga o'rgatish ishini maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarishdan iborat deb hisoblanadi.

Tadqiqotchilarning fikricha, savodga o'rgatish ko'nikmasi shakllanishidagi qiyinchiliklarning psixofiziologik asosi quyidagilardan: ko'rish orqali idrok qilinayotgan axborotni qabul qilish va qayta ishslashni sekinlashgan sur'ati; o'qish jarayonida qatnashayotgan ko'rish, eshitish va nutqiy harakat markazlari o'rtasidagi assosiativ bog'lanishlarni o'rnatish bo'yicha

qiyinchilkilar; axborotni tushunib yetish negizida joylashgan tafakkur jarayonlarni o'tishining past sur'ati; nazoratning sustligi va boshqalardan iborat. Tovush tahlili va sintezining yetarlicha emasligi, nutqning talaffuz etilishining buzilishi, ko'rish orqali idrok qilishning kuchsizligi, e'tibor, ishslash qobiliyatining pasayganligi, lug'atning kam hajmligi va grammatik tuzilishining shakllanmaganligi, mantiqiy bog'lanishlarni tushinishdagi qiyinchiliklar – bularning hammasi intellektual tomondan yetarlicha rivojlanmagan o'quvchilar o'qish ko'nikasini o'zlashtirishida jiddiy buzilishlarga olib keladi. O'qish quyidagi alohida amallar seriyasidan iborat: harfni uni fonema bilan bog'langan holda farqlash, bir necha bo'g'inlarni yagona bo'g'inga birlashtirish, bir necha bo'g'inlarni yagona so'zga birlashtirish, bir nechta o'qilgan so'zlarni yakunlangan iboraga yoki fikrga integrasiyalash. O'qishga o'rgatish jarayonida o'quvchi ongli nazorat va aqliy kuchlanishlni talab qiluvchi amallarni ketma-ket o'zlashtiradi. Keiynchalik amallar avtomatlashadi va ong nazoratida faqat tushunib yetilgan ibora va fikrlar aks etadi[122].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdullayeva Q., Hidoyatova SH., Rahmonbekova S. O'qish kitobi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 2-sinf darsligi. T.: Yangiyo'l poligraf servis, 2022.
2. Muzaffarova F., Nasriddinova D. O'qish kitobi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 3-sinf darsligi. T.: Niso poligraf servis, 2021.
3. Nurkeldiyeva D.A. Pedagogik – psixologik diagnostika (rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik-psixologik diagnostikasi). Darslik. T.: Vneshinvestrom, 2023. 21-b.
4. Rasulova M., Hikmatova Sh. O'qish kitobi. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 5-sinf darsligi. T.: Cho'lpon, 2023.